



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI TILIDA QO‘LLANILGAN AYRIM FORSCHA ASLIY SIFATLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sunatulla Soyipov

Jizzax davlat pedagogika instituti, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tilida qo‘llanilgan forscha asliy sifatlar aniqlangan va ularning doston tilini sinonimik jihatdan boyitganligi, ifoda imkoniyatini kengaytirganligi, vazn va qofiya, shakl va ma’no mutanosibligini ta’minlaganligi asardan iqtiboslar keltirish yo‘li bilan ilmiy tahlili amalga oshirilgan va ular xususida umumlashma xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: asly sifatlar, nisbiy sifatlar, sinonim, ekvivalent, tilshunoslik, vazn, qofiya, ma’no, ilmiy, adabiyotshunoslik.

ОСОБЕННОСТИ НЕКОТОРЫХ ПЕРСИДСКИХ ЗАИМСТВОВАННЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В ЯЗЫКЕ ПОЭМЫ АЛИШЕРА НАВОИ «ФАРХАД И ШИРИН»

Сунатулла Сойипов

Джизакский государственный педагогический институт, доцент

Аннотация

В данной статье выявлены персидские исконные прилагательные, использованные в языке дастана Алишера Навои “Фархад и Ширин,” и научно проанализированы их синонимическое обогащение языка дастана, расширение возможностей выражения, обеспечение баланса размера и рифмы, формы и значения путем цитирования произведения и сделаны обобщенные выводы по ним.

Ключевые слова: исконные прилагательные, относительные прилагательные, синоним, эквивалент, лингвистика, метр, рифма, значение, научный, литературоведение.

SPECIFIC FEATURES OF CERTAIN PERSIAN-ORIGIN ADJECTIVES USED IN THE LANGUAGE OF ALISHER NAVOI’S EPIC “FARHOD AND SHIRIN”

Sunatulla Soyipov

Jizzakh State Pedagogical Institute, Associate Professor

Abstract

This article identifies the original Persian adjectives used in the language of Alisher Navoi's "Farhad and Shirin" epic and scientifically analyzes their synonymous enrichment of the epic's language, expanding expressive possibilities, ensuring the balance of meter and rhyme, form and meaning through citation of the work, and draws generalized conclusions about them.

Keywords: native adjectives, relative adjectives, synonym, equivalent, linguistics, meter, rhyme, meaning, scientific, literary studies.

IX asrga kelib, arab xalifaligi tanazzulga uchradi va Markaziy Osiyoda Buxoroga markazlashgan Somoniylar davlati vujudga keldi. Bu davlatning barpo etilishida Buxoroning fors

tilida soʻzlashuvchi xalqlari hissasi katta boʻldi va shu sababli ham IX–XI asrlarda mazkur davlat boshqaruvi toʻliq fors tilida soʻzlashuvchi xalqlar qoʻliga oʻtdi. Shuningdek, ushbu davlatning rivojlanishi va ravnaq topishida mazkur mamlakat podshohlaridan biri boʻlgan Ismoil Somoniyning ham salmoqli oʻrni mavjud.

Shu bois boʻlsa kerakki, Somoniylar davlatida davlat va adabiy til fors tili boʻldi va bu til oʻsha davridayoq tadrijiy ravishda rasmiy til sifatida arab tilining oʻrnini egalladi. Natijada fors tili IX asrdan boshlab Markaziy Osiyo, Xuroson, Eron va Afgʻoniston xalqlariga maʼlum bir grammatik qoidaga asoslangan yagona adabiy til sifatida xizmat qila boshladi va Buxoroda vujudga kelgan mazkur fors tili yangi, yaʼni hozirgi fors tili davrini boshlab berdi. Shuning uchun ham Buxoro fors tilining beshigi hisoblanadi [1; 10]. Darhaqiqat, oʻsha davrda yashab, ijod etgan mashhur Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy oʻzining “Layli va Majnun” dostoni muqaddimasini fors tilida yozdi.

Shu bilan bir qatorda, Alisher Navoiy yashab ijod etgan XV–XVI asrlarda ham Markaziy Osiyo, Xuroson, hattoki, Hindistonning bir qismida ham boshqa tillarga nisbatan fors tilining nufuzi ancha yuqori boʻlib, unga eʼtibor sezilarli darajada kuchli edi. Chunki oʻsha davrlarda fors adabiyoti namoyandalari koʻp boʻlib, oʻz davrining koʻzga koʻringan ijodkorlari sifatida mazkur tilda buyuk asarlar yaratganlar. Shuning uchun ham fors tilining har tomonlama mavqei mazkur hududlarda boshqa tillarga nisbatan sezilarli darajada yuqori edi.

Darhaqiqat, Hindistonning poytaxti Dehlida yashab ijod etgan hamda oʻz davrining davlat arbobi, shuningdek, buyuk mutafakkirlaridan biri, ota-bobolari asli Turkiston turkiylaridan boʻlgan Amir Xusrav Dehlaviy ham oʻzining barcha asarlarini fors tilida yozdi. Shunga qaramasdan, oʻzbek xalqining faxri boʻlgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy oʻz ona tili boʻlmish turkiy tilning nufuzini nafaqat Markaziy Osiyo, balki xalqaro miqyosda koʻtarish maqsadida deyarli barcha asarlarini oʻz ona tilida, yaʼni turkiyda (oʻsha davr oʻzbek adabiy tilida) ijod qildi va u oʻz muallifligida yaratilgan qimmatli va durdona asarlari bilan oʻzbek adabiy tilini oʻsha davr fors tili mavqei darajasigacha koʻtardi. Bu borada yana shuni taʼkidlab oʻtishimiz joizki, oʻzbek xalqining buyuk shoiri va davlat arbobi Alisher Navoiy oʻz ona tilida yozilgan oʻttizdan ortiq asarlari bilan oʻzbek adabiyoti va tili shuhratini nafaqat Xuroson va Markaziy Osiyoga, balki butun jahonga yoydi.

Shunga qaramasdan, oʻzbek xalqi tili tarixining oʻziga xos xususiyatlari hozirgi kunga qadar xalqimiz tomonidan yaratilgan dostonlar va oʻsha davrda yashab ijod etgan olim-u shoirlar tomonidan bitilgan qimmatli asarlar tili misolida toʻliq oʻrganilmagan. Shunday ekan, biz “oʻsha davrda yaratilgan yozma yodgorliklar va ularning til xususiyatlari ham hozirgi zamon oʻzbek tilshunosligi talablari darajasida ilmiy tadqiq etilmagan” [2; 15] degan xulosaga kelishimiz uchun yetarlicha asosga egamiz.

Shu bois ham oʻzbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, boshqa tillardan oʻzbek adabiy tiliga soʻz, ibora va shakllar turli davrlarda turlicha ijtimoiy sabablarga koʻra oʻzlashganligini koʻramiz. Shunday ekan, oʻzbek adabiy tilining lugʻat tarkibidagi soʻzlar tarixiy shakllanishiga koʻra faqat turkiy tillarga xos boʻlmay, balki fors, arab, moʻgʻul, uygʻur tillari soʻz va iboralariga ham xosdir.

Dunyoda lugʻat boyligi faqat oʻz soʻzlaridan tashkil topgan hech bir xalq tili yoʻq. Shu sababli ham boshqa tillardan biror tilga oʻzlashgan soʻzlar oʻz shakli va maʼnosini oʻsha tilda qanday boʻlsa, shundayligicha saqlab qolmay, balki oʻzlashgan tilning grammatik qurilishi, soʻz yasalishi, imlo va talaffuz qoidalari asosida moslashadi. Shular qatori oʻzbek adabiy tili va shevalariga ham boshqa tillardan koʻplab soʻz va iboralar oʻzlashganki, ular asosan ilmiy, siyosiy, ijtimoiy, harbiy hamda maʼnaviyatga oid soʻz va iboralar hisoblanadi. Bunday soʻzlar koʻproq soʻzlashuv hamda kitobiy tillar orqali oʻzlashganligiga hech qanday shubha yoʻq.

Biz bu borada yana shuni taʼkidlab oʻtishimiz lozimki, adabiy tilimizga arabcha soʻzlar koʻproq kitobiy, forscha va moʻgʻulcha soʻzlar esa soʻzlashuv nutqi orqali oʻzlashgan. Tarixdan bizga maʼlumki, oʻzbek va fors xalqlari azaldan yonma-yon yashab, bir-birlari bilan ijtimoiy-

iqtisodiy va madaniy munosabatda boʻlib kelganlar. Bu haqida tojikistonlik akademik B. Gʻofurov shunday yozadi: “Oʻzbek va fors xalqlari oʻrtasida yaqinlik melodiy asrlardan boshlangan” [3; 99–100]. Shu sababli ham mazkur xalqlar oʻrtasidagi ijtimoiy aloqalar keyingi asrlarda yanada kengaydi, mustahkamlandi, oʻziga xos tarzda rivojlandi va natijada oʻzbek adabiy tili oʻz lugʻat tarkibini arab soʻzlari bilan bir qatorda forscha oʻzlashmalar hisobiga ham boyitdi.

Shuning uchun boʻlsa kerakki, hozirgi kunda ham “Oʻzbek adabiy tili leksikonida koʻproq maishiy, sanʼat, hayvonot dunyosi, oʻsimliklar, qishloq xoʻjaligi, tabiat hodisalari, vaqt-masofa, oʻrin-joy va boshqa sohalarga oid forscha oʻzlashmalar koʻproq uchraydi” [3; 110]. Shularni eʼtiborga olib, biz oʻzbek adabiy tili tarixini yanada chuqurroq oʻrganish maqsadida mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining bizga qoldirgan qimmatli va boy adabiy hamda maʼnaviy meroslarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etishni oʻz oldimizga maqsad qilib qoʻydik.

Alisher Navoiyning adabiy merosini adabiy nuqtayi nazardan tadqiq etishimiz va oʻrganishimiz qanchalik zarur va ahamiyatli boʻlsa, uning asarlari tili misolida oʻzbek adabiy tili lingvistikasi tarixini tilshunoslik nuqtayi nazaridan oʻrganishimiz shunchalik zarur va ahamiyatlidir. Bu sohada hozirgi kunga qadar tilshunos olimlar tomonidan koʻplab ijobiy ishlar amalga oshirilgan. Albatta, bunday yutuqlar tahsinga sazovordir. Shunga qaramasdan, Alisher Navoiy asarlari tilida qoʻllanilgan oʻzlashma soʻzlarning oʻziga xos jihatlarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tafsiloti bilan tahlil qilish, ilmiy jihatdan oʻrganish, ular xususida ilmiy-nazariy hamda umumlashma xulosalar chiqarish borasida koʻplab ilmiy izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir, chunki bu sohada amalga oshirilishi lozim boʻlgan ishlar hali bisyor.

Shu bilan bir qatorda, koʻpgina mumtoz adabiyotimiz shoir va mutafakkirlari asarlari singari, Alisher Navoiyning ham oʻzbek adabiy tilida yozilgan asarlari tiliga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, unda boshqa tillar soʻzlari singari koʻplab forscha oʻzlashmalar, shuningdek, soʻz birikmalari hamda ayrim qoʻshimchalar uchraydi. Alisher Navoiyning asarlari tiliga xos boʻlgan bunday holatlarni ayrim tilshunos olimlar uning ikki tilda birdek, bir vaqtning oʻzida ijod qilganligi bilan izohlaydilar.

Shunday ekan, oʻz davrining koʻplab taniqli turkigoʻy shoirlari qatori Alisher Navoiyning ham durdona va qimmatli asarlari tili misolida ularning oʻzlashma soʻzlarni qoʻllash mahoratini oʻrganish uchun hali koʻplab ilmiy izlanishlar olib borishga toʻgʻri keladi. Shuningdek, Alisher Navoiyning asarlari tilida qoʻllanilgan arabcha, forscha, moʻgʻulcha soʻzlarni oʻzbek tilshunosligi nuqtayi nazaridan qiyosiy jihatdan oʻrganish alohida ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Bundan tashqari, Alisher Navoiy tilshunos olim sifatida oʻzbek adabiy tili rivojiga birinchilardan boʻlib asos solgan va uni shakllantirish, rivojlantirish hamda lugʻat tarkibini mislsiz darajada boyitish yoʻlida oʻzining katta hissasini qoʻshgan mutafakkirlardan biridir. Shu sababli ham oʻzbek adabiy tilining rivojlanishi va taraqqiyotini tilshunos olimlar haqqoniy ravishda Alisher Navoiyning tabarruk nomi bilan bogʻlaydilar.

Shularni eʼtiborga olib, biz ushbu maqolamizni Alisher Navoiyning buyuk hamda uni butun jahonga tanitgan “Xamsa” asari tarkibiga kiruvchi “Farhod va Shirin” dostoni tili va unda qoʻllanilgan forscha asliy sifatlarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan oʻzbek tili sifatlari bilan leksik, grammatik hamda qiyosiy jihatdan tahlil va tavsif etishga bagʻishladik.

Fors tilida sifatlari asliy va nisbiy sifatlarga boʻlinadi, bu esa ularni boshqa soʻz turkumlaridan ajratib turuvchi asosiy belgilardan biri sanaladi [1; 247].

Asliy sifatlari oʻzbek adabiy tili grammatikasida “predmetning toʻgʻridan-toʻgʻri belgisini anglatadi”, deb taʼriflanib, “bunday sifatlarga quyidagi soʻzlarni kiritish mumkin”, deyiladi va misol tariqasida mazkur soʻzlar keltiriladi: *oq, qizil, sariq, pushti, yaxshi, yomon, katta* va hokazo [4; 282]. Shuningdek, yana oʻzbek tilida “predmetning belgisini darajalab koʻrsata oladigan hamda -roq qoʻshimchasini erkin qabul qila oladigan sifatlari asliy sifatlari” [5; 133] deyiladi. Shuningdek, fors tilida ham xuddi oʻzbek adabiy tilidagidek, predmetning belgisini anglatuvchi asliy sifatlari mavjud boʻlib, ular ham xuddi oʻzbek tili asliy sifatlari kabi darajalanadi [5; 133, 136].

Shularni e'tiborga olib, biz "Farhod va Shirin" dostonidan forscha asliy sifatlardan biri bo'lgan "ravshan" so'zi qo'llanilgan bir necha baytni iqtibos sifatida keltiramiz va ularni tahlilga tortamiz:

*Shakar ul nav' topmay komi idrok,
Guhar bu tavr kelmay ravshanu pok (11-bet).
Muayyan aylagil ravshan zamire,
Risalat shevasida benazire (206-bet).
Shak ermas anglabon ravshan zamiring,
Anga mayl aylagay royi muniring [6; 11, 206, 349] (349-bet).*

Dostondan iqtibos sifatida keltirilgan ushbu bir necha baytga ahamiyat beradigan bo'lsak, ularning barchasida yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, hozirgi o'zbek adabiy tilidagi "yorug'" so'zi forscha asliy sifatlardan "ravshan" leksemasiga ayrim o'rinlarda sinonim, ba'zida esa ekvivalent tarzida qo'llanganligini ko'ramiz [8; 615]. Biz bu bilan Alisher Navoiy boshqa asarlari singari o'zining "Farhod va Shirin" dostoni tilida ham "ravshan" kabi bir qancha forscha asliy sifatlarni faol qo'llab, ularni o'z asarlari tili misolida o'sha davr o'zbek adabiy tili leksikoniga olib kirib, uning sinonimik imkoniyatlarini hamda lug'at tarkibini mislsiz darajada boyitganligi, shuningdek, tilimizning ifoda imkoniyatini ma'lum darajada kengaytirganligi va uni xuddi fors tili singari nazm tiliga aylanishida o'zining salmoqli hissasini qo'shganligini ko'ramiz. Shuning uchun ham Alisher Navoiyning barcha asarlari tili sodda, musiqiy va xalq tiliga yaqin bo'lib, mukammal hamda so'zga boy, shuningdek, rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi.

Darhaqiqat, shoir forscha asliy sifatlardan bo'lgan "ravshan" so'zini ushbu asari tilida leksik hamda grammatik nuqtayi nazardan o'z o'rnida qo'llaganligini uning mazkur asaridan keltirilgan baytlar va ularning tabdili mazmunini o'zaro qiyoslash natijasida ham anglab olishimiz mumkin.

Dostondan misol tariqasida keltirilgan baytlarning birinchisi:

*Shakar ul nav' topmay komi idrok,
Guhar bu tavr kelmay ravshanu pok.*

Ushbu baytning tabdili mazmuni:

U o'shanday shakarni o'zining tafakkuri idroki bilan topa olmas ekan, bu xildagi toza va yorqin gavharga erisha olmaydi.

Demak, mazkur baytning tabdili mazmunidan yana shuni anglab olishimiz mumkinki, unda qo'llanilgan forscha "ravshan" so'zi asar muallifi tomonidan asl lug'aviy ma'nosida emas, balki semantik ma'nosida, ya'ni o'zbek adabiy tilidagi "yorqin" so'zi o'rnida qo'llanilganligini ko'ramiz. Shuningdek, shoir ushbu doston tili yanada mazmundor, ta'sirchan va ifodali bo'lishini ta'minlash maqsadida ayrim o'rinlarda "ravshan" so'ziga o'xshash bir qancha forscha asliy sifatlarni o'z va semantik ma'nolari bilan bir qatorda ko'chma ma'noda ham qo'llaganligini ko'ramiz.

Shu bilan birgalikda, asardan iqtibos sifatida keltirilgan baytlarning ikkinchisiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda qo'llanilgan "ravshan" so'zi o'z leksik ma'nosida kelganligini ko'rishimiz mumkin.

Ikkinchi bayt:

*Muayyan aylagil ravshan zamire,
Risalat shevasida benazire.*

Ushbu baytning tabdili mazmuni:

Yorug' kelajakni belgilab berishda va payg'ambar topshirig'ini bajarishda u tengi yo'q kishi edi.

Iqtibos sifatida keltirilgan ushbu baytning tabdili mazmunidan anglashilishicha, unda ikkita, ya'ni "ravshan" va "benazir" kabi forscha sifot so'z turkumiga oid so'zlar qo'llanilganligini ko'ramiz. Shunday ekan, mazkur baytning birinchi misrasida kelgan "ravshan" so'zi yuqorida zikr etib o'tganimizdek asliy sifot bo'lsa, "benazir" so'zi esa forscha be- old qo'shimchasi vositasida

yasalgan nisbiy sifatdir. Shundan biz mazkur baytda qoʻllanilgan “ravshan” soʻzi “yorugʻ”, “benazir” esa “tengsiz”, “tengi yoʻq” kabi maʼnolarni ifodalashda qoʻllanilganligini koʻramiz.

Ushbu baytlarning navbatdaxisida ham “ravshan” soʻzi qoʻllanilgan boʻlib, bu soʻz baytda oʻzining oʻzbek tilidagi sinonimi boʻlgan “yorqin” soʻzi oʻrnida kelgan boʻlib, “ravshan” soʻzi oʻzbek adabiy tilida ham soʻz turkumi jihatidan asliy sifatdir, chunki ushbu soʻz darajalanish xususiyatiga ega hisoblanadi. Shunday ekan, “ravshan” soʻzining oʻzbek adabiy tilidagi “yorqin” soʻzi oʻrnida qoʻllanilganligini dostonning uchinchi bayti va uning tabdili mazmunini qiyoslash orqali ham anglab olishimiz mumkin.

Dostondan iqtibos sifatida keltirilgan uchinchi bayt:

Shak ermas anglabon ravshan zamiring,

Anga mayl aylagay royi muniring.

Baytning tabdili mazmuni:

Sen kelajakni shak-shubhasiz anglashing kerak, chunki sening yorqin qarashlaring bunga moyillik bildirmoqda.

Yuqorida dostonidan iqtibos sifatida keltirilgan baytlarning barchasi tabdili mazmunidan Alisher Navoiy oʻzining “Farhod va Shirin” dostoni tilida birgina forscha sifat soʻz turkumiga oid boʻlgan “ravshan” soʻzini oʻzbek adabiy tilidagi “yorqin”, “yorugʻ”, “tiniq” kabi soʻzlar oʻrnida qoʻllab, undan va shunga oʻxshash forscha soʻzlardan asar tilining ifoda imkoniyatini kengaytirishda, uning maʼno-mazmunini teranlashtirishda, shakl va mazmuni, shuningdek, vazn va qofiya muttanosibligini hamda musiqiylikini taʼminlashda unumli istifoda etganligini koʻramiz.

Shoir mazkur asari tilida yana shunga oʻxshash forscha asliy sifatlardan “sabz” va “sabza” kabilarini 16 marta qoʻllagan va ulardan koʻproq maʼno va mazmun ifodalashda oʻrinli hamda unumli foydalanib, natijada doston tilining jozibadorligi, mukammalligi va yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek, rang-barangligiga erishgan. Shuningdek, biz dostonidan forscha asliy sifatlardan boʻlgan “sabz” va “sabza” soʻzlari qoʻllanilgan bir necha baytni iqtibos sifatida keltiramiz:

Qushi toʻti, ne toʻtikim surushi,

Malakdek hulla birla sabz poʻshi (51-bet).

Natija bersa bu tufroq ila gard,

Xasu xoshok oʻlur, yoʻq sabzau vard (353-bet).

Qizilrohi yashil chini piyola,

Nechukkim sabza sahni ichra lola [6; 51, 353, 58] (58-bet).

“Farhod va Shirin” dostonidan misol tariqasida keltirilgan ushbu baytlarga ahamiyat beradigan boʻlsak, ularda forscha asliy sifatlardan “sabz” va “sabza” kabilar qoʻllanilgan boʻlib, mazkur soʻzlardan “sabz” oʻzbek tiliga “koʻk”, “yashil” soʻzlari leksik maʼnosida tarjima qilinsa, “sabza” soʻzi esa “koʻm-koʻk”, “yam-yashil” singari juft sifatlar ifodalaydigan leksik maʼnolarda tarjima qilinadi [9; 16]. Shundan koʻrinib turibdiki, Alisher Navoiy ushbu forscha “sabz” va “sabza” kabi sifatlardan mazkur asari tilida yuqorida taʼkidlab oʻtilgan leksik maʼnolarni ifodalashda foydalangan. Shunday ekan, ushbu “sabz” soʻzini oʻzbekcha sinonimi bilan qiyoslash maqsadida hamda bu boradagi fikrimizga asos sifatida “sabz” soʻzi qoʻllanilgan birinchi bayt va uning tabdili mazmunini keltiramiz.

Bayt:

Qushi toʻti, ne toʻtikim surushi,

Malakdek hulla birla sabz poʻshi.

Baytning tabdili mazmuni:

Toʻti qush xuddi farishtadek boʻlib, ustiga koʻk (havorang) kiyimlar kiyib olgan edi.

Demak, dostonidan keltirilgan ushbu baytning tabdili mazmuniga ahamiyat qaratadigan boʻlsak, shoir “sabz” soʻzini hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi “koʻk”, “havorang” soʻzlari oʻrnida qoʻllab, bu bilan maʼlum darajada dostonning ifoda imkoniyatini kengaytirganligini koʻramiz. Shuningdek, mazkur bayt tabdili mazmunida keltirilgan “koʻk” va “havorang” leksemalari hozirgi

o‘zbek adabiy tilida bir-biri bilan o‘zaro sinonim so‘zlar hisoblanadi. Shundan ko‘rinib turibdiki, ushbu baytda qo‘llanilgan forscha “sabz” so‘zi asliy sifat bo‘lib, u fors tilida xuddi o‘zbek tili asliy sifati bo‘lmish “ko‘k” so‘zi kabi darajalanadi. Masalan: “sabz — sabzta”, “ko‘k — ko‘kroq” va hokazo. Bizga ma‘lumki, shoir ushbu baytda o‘zbek adabiy tilidagi “ko‘k” so‘zi o‘rnida forscha “sabz” so‘zini qo‘llagan va shu tariqa u mazkur so‘z orqali o‘z asariga kengroq ma‘no va mazmun singdira olgan, shuningdek, doston tilining ta‘sirchanligini, kuychanligini ta‘minlashda unumli foydalangan. Shuning uchun ham Alisher Navoiyning barcha asarlari tili shakl va mazmuniga nisbatan mutanosibdir. Bunga asos sifatida dostonidan iqtibos sifatida keltirilgan ikkinchi bayt va uning tabdili mazmunini keltiramiz.

Bayt:

Natija bersa bu tufroq ila gard,

Xasu xoshok o‘lur, yo‘q sabzau vard.

Ushbu baytning tabdili mazmuni:

Agar bu tuproq bilan chang salbiy natija berganda edi, barcha yam-yashil gullar xas va xashakka aylangan bo‘lar edi.

Mazkur bayt va uning tabdili mazmuniga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, baytdagi “sabza” so‘zi yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, muallif tomonidan “ko‘m-ko‘k” so‘zi o‘rnida va aynan ushbu so‘z ma‘nosini ifodalashda istifoda etilganligini ko‘ramiz [9; 16]. Bundan tashqari, shoir dostonida forscha “sabza” so‘zini ko‘proq o‘zbek adabiy tilidagi juft sifatlardan biri bo‘lmish “ko‘m-ko‘k” so‘zi o‘rnida qo‘llaganligini va bu bilan yana mazkur so‘zdan dostonning qofiya va vazn, mazmun va shakl mutanosibligini ta‘minlashda ham unumli foydalanganligini ko‘ramiz.

Shunday ekan, shoir forscha asliy sifatlardan bir qanchasini o‘zining “Farhod va Shirin” dostoni tilida o‘zlashma so‘zlar sifatida qo‘llab, ulardan ma‘no ifodalashda o‘rinli istifoda etgan. Bu esa, o‘z navbatida, ijodkorning o‘zlashma so‘zlarni qo‘llash mahoratini ham o‘ziga xos tarzda namoyon etadi. Bu boradagi fikrimizni asoslash maqsadida asardan misol tariqasida keltirilgan uchinchi bayt va uning tabdili mazmunini keltiramiz.

Bayt:

Qizilrohi yashil chini piyola,

Nechukkim sabza sahni ichra lola.

Baytning tabdili:

Nega bu qizil yo‘lli yashil chinni piyolaning yuzidagi ko‘m-ko‘k rang ichiga lola rasmi tushirilgan.

Ushbu baytning tabdili mazmunidan shoir o‘z asari tilida bir xil rangni ifodalashda bir-biri bilan sinonim bo‘lgan ikki xil, ya‘ni o‘zbek tilidagi “yashil” hamda uning sinonimi bo‘lgan forscha “sabza” so‘zlaridan foydalanganligini ko‘ramiz. Alisher Navoiy mazkur baytning har ikkala misrasida ham “yashil” yoki “sabza” so‘zlaridan birini qo‘llashi ham mumkin edi, lekin u bir xil ma‘noni ifodalovchi ikki xil so‘zdan foydalangan va bu bilan bir baytda bir so‘zni takroriy qo‘llashdan qochib, natijada ikki so‘zni qo‘llab, ulardan asar tili jozibadorligi hamda rang-barangligini ta‘minlashda unumli foydalanganligini ko‘ramiz.

Alisher Navoiy yana “Farhod va Shirin” dostoni tilida shunga o‘xshash bir qancha forscha asliy sifatlardan qatori “xush” so‘zini ham qo‘llaganki, u so‘z ham mazkur asar tilining leksik jihatdan so‘zga boy va ifodaliligi nuqtayi nazaridan keng qamrovli bo‘lishini ta‘minlagan. Masalan:

Ko‘ngil ishq ahlig‘a ming pora xushdir,

Chu ma‘shuq ahl emastur, chora xushdir (14-bet).

Kezib Chin davrida shodu qadahkash,

Aning to‘rt mavzi‘ qildilar xush [6; 14, 41] (41-bet).

Asar tili nuqtayi nazaridan yana shuni ta‘kidlab o‘tishimiz joizki, doston tilida shoir forscha asliy sifatlardan “xush” so‘zini 20 martaga yaqin o‘zbek adabiy tilidagi uning sinonimi va ekvivalenti bo‘lgan “yaxshi” so‘zi o‘rnida qo‘llaganligini ko‘ramiz. Shularni e‘tiborga olib, biz

dostondan forscha asliy sifatlardan “xush” so‘zi ishtirok etgan ikkita baytni misol tariqasida keltirdik. Bizning anglashimizcha, shoir baytlardagi forscha “xush” so‘zidan ko‘proq o‘z asari tili sinonimik imkoniyatlarini, shuningdek, uning rang-barangligini, ifoda imkoniyatlarini kengaytirishda, vazn va qofiya, shakl va mazmun mutanosibligini ta‘minlashda unumli va o‘rinli istifoda etganligini ko‘ramiz. Bunday holat dostondan misol tariqasida keltirilgan baytlar va ularning tabdili mazmunida ham o‘z aksini topgan.

Dostondan misol tariqasida keltirilgan baytlarning birinchisi:

*Ko‘ngil ishq ahlig‘a ming pora xushdir,
Chu ma‘shuq ahl emastur, chora xushdir.*

Baytning tabdili mazmuni:

Ishqni tushunadigan kishilarga yaxshi ko‘ngil ming bora kerakdir, lekin o‘sha ishqqa yetishish uchun yaxshi bir chora bo‘lmagach, oshiq kishi ham bora-bora insoniylikdan chiqadi.

Dostondan keltirilgan ushbu baytda forscha “xush” so‘zi uning birinchi hamda ikkinchi misrasida ham qo‘llanilgan bo‘lib, u ikkala misrada ham so‘z turkumi jihatidan sifat, gap bo‘lagi nuqtayi nazaridan aniqlovchi vazifasida kelganligini ko‘ramiz. Shuningdek, shoir mazkur asari tilida forscha asliy sifatlardan “xush” so‘zini o‘zbek tili sifat so‘z turkumiga oid “yaxshi” so‘zi o‘rnida qo‘llab, undan ko‘proq asar ta‘sirchanligini va uning tili rang-barangligini ta‘minlashda foydalangan. Asardagi bunday holat o‘z-o‘zidan Alisher Navoiyning o‘zlashma so‘zlarni o‘rinli qo‘llab, til jihatidan mukammal va so‘zga boy bo‘lgan asarlar yaratish borasidagi mahoratini namoyon etadi.

Bundan tashqari, doston muallifi mazkur asarining ayrim baytlarida forscha “xush” so‘zini o‘zbek tili sifatlariga nisbatan ko‘chma ma‘noda ham qo‘llagan. Bu boradagi fikrimizga asos sifatida dostondan iqtibos sifatida keltirilgan ikkinchi bayt va uning tabdili mazmunini keltiramiz hamda ularni o‘zaro mazmun jihatidan qiyoslaymiz.

Bayt:

*Kezib Chin davrida shodu qadahkash,
Aning to‘rt mavzi‘ qildilar xush.*

Ushbu baytning tabdili mazmuni:

Xitoyning barcha joylarini shod va sarxush holatda aylanib chiqib, uning to‘rt o‘lkasini obod joyga aylantirdilar.

Dostondan misol tariqasida keltirilgan ushbu baytning ikkinchi misrasi tabdili bayoniga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, unda muallif forscha “xush” so‘zini uning o‘zbek adabiy tilidagi ekvivalenti “yaxshi” so‘zi o‘rnida emas, balki uning ko‘chma ma‘nosi bo‘lmish “obod” so‘zi o‘rnida qo‘llagan va bu bilan shoir mazkur so‘zdan ushbu baytda o‘ziga xos bir ma‘noni ifoda etishda ustalik bilan istifoda etgan.

Darhaqiqat, yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, Alisher Navoiy o‘zining “Farhod va Shirin” dostoni tilida bir qancha forscha asliy sifatlarni o‘zbek adabiy tili sifatlariga sinonim yoki ekvivalent tarzida o‘z, ko‘chma yoki semantik ma‘nolarida qo‘llaganligini asar baytlaridan iqtiboslar keltirish asnosida ilmiy tahlil qilish va ular xususida ilmiy-nazariy hamda umumlashma xulosalar chiqarish mumkin. Shuningdek, yana ushbu doston tilida asar muallifi tomonidan turkiy adabiy til butun jozibasi va ifoda imkoniyati bilan namoyon etilganligi ilmiy jihatdan aniqlandi.

Bu borada xulosa qilib, yana shuni ta‘kidlab o‘tishimiz mumkinki, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tilini tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganishimiz natijasida unda shoir tomonidan forscha asliy sifatlardan 88 turi o‘zbek tili sifatlariga sinonim yoki ekvivalent tarzida o‘z, ko‘chma va semantik ma‘nolarida qo‘llanilganligini, shuningdek, ular asar tili jozibadorligini, ifoda imkoniyatini, shu bilan bir qatorda rang-barangligi va xalqchilligini ta‘minlashda foydalanilganligini ko‘ramiz.

Bundan tashqari, muallifning doston tilida bir qancha forscha so‘zlarni o‘rinli qo‘llaganligi va ularni shu tariqa o‘zbek adabiy tili leksikoniga olib kirib, natijada tilimizning sinonimik, shuningdek, ifoda imkoniyatlarini, lug‘at boyligini beqiyos darajada oshirganligi ilmiy

jihatdan oʻrganildi va bu borada asosli ilmiy xulosalar chiqarildi.

Shu bilan bir qatorda, “Farhod va Shirin” dostoni tilida oʻzbek tili sifat soʻz turkumlariga sinonim yoki ekvivalent tarzida qoʻllanilgan forscha asliy sifatlarning ayrimlarini qoʻllanish soni va oʻzbek tilidagi maʼnolari bilan birga keltiramiz. Ular quyidagilar: *tez* — oʻtkir (11 marta); *shirin* — mazali, totli (21 marta); *bolo* — tepa, baland (5 marta); *zinda* — tirik (8 marta); *mast* — mast (12 marta); *monand* — oʻxshash (22 marta); *pir* — qari, qariya, ulugʻ (8 marta); *zisht* — xunuk (5 marta); *xub* — yaxshi (31 marta); *zoʻr* — kuchli (26 marta); *baʼd* — yomon (31 marta); *zor* — qaygʻuli (19 marta); *past* — past (24 marta); *buzurg* — katta, ulugʻ (25 marta); *turfa* — qulay, chiroyli (13 marta); *kuhan* — eski (21 marta); *shod* — shod, xursand (29 marta); *zibo* — chiroyli (33 marta); *nozuk* — ixcham, yupqa, chiroyli (12 marta); *chust* — chaqqon, birdan (15 marta); *qahrabo* — sariq (7 marta); *zilol* — tiniq, toza (23 marta); *toza* — yangi (21 marta); *kund* — botir, qoʻrqmas (22 marta); *dono* — bilimli, bilimdon (34 marta); *mushkul* — qiyin (18 marta); *garm* — issiq (21 marta); *tiyra* — xira (13 marta); *beh* — yaxshi (23 marta); *gulhan* — chiroyli (3 marta); *siyah* — qora (27 marta).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Abdusamatov M. Fors tili. — Toshkent: Sharq, 2007. — B. 10, 247.
2. Aliyev K., Sodiqov Q. Oʻzbek adabiy tili tarixidan. — Toshkent, 1972. — B. 15.
3. Gʻulomov B. G. Tojik xalqi tarixi. — Moskva, 1952. — B. 99–100, 110.
4. Tursunov U., Muxtorov Sh., Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. — Toshkent: Oʻzbekiston, 1992. — B. 282.
5. Asqarova M., Yunusov, Yoʻldoshev M., Muhammedova D. Oʻzbek tili praktikumi. — Toshkent, 2006. — B. 133.
6. Erkinov A. Farhod va Shirin. — Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 1989. — B. 11, 14, 41, 51, 155, 206, 349, 353.
7. Xalilov L. Fors tili. — Toshkent: Oʻqituvchi, 1992. — B. 133, 136.
8. Voskanian G. A. Ruscha-forscha lugʻat. — Moskva: Ruskiy yazyk, 1980. — B. 16, 615.
9. Rubinçik Yu. A. Forscha-ruscha lugʻat. — Moskva: Ruskiy yazyk. — B. 16, 63.
10. Rustamov A., Karimov Q., Umarov Z. Forscha-oʻzbekcha lugʻat. — Toshkent: Oʻqituvchi, 1983. — B. 91.